IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

TARIXNAVIS VA ADIB IBN ARABSHOHNING HAYOT YO‘LLARI

Urunov Shoxijahon Jamshidovich
Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi 2-bosqich talabasi
urunovshoxijahon@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘rta asrlarda yashab, ijod etgan tarixnavis va adib Ibn Arabshohning hayotiga doir qiziqarli ma’lumotlar aniq faktlar asosida bayon etilgan. Ibn Arabshoh qayerlarda sayohat qilganligi, qaysi hukmdorlar saroyida ijod qilganligi hamda vafot etishi to‘g‘risida haqida fikrlar boradi.

Kalit so‘zlar: Ibn Arabshoh, Qohira, Shom, nasr, kotib us-sir, sayohat.

Ibn Arabshohning to‘liq ismi Shahobuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim bo‘lib, u 791 hijriy yili zu-l-qa’da oyining o‘rtasida (1389-yilning 5-noyabrida) Damashq shahrida tug‘ilgan. Ibn Arabshoh asli damashqlik bo‘lgani uchun unga ad-Damashqiy, deb taxallus berilsa-da, birmuncha vaqtlar usmonli turklar huzurida yashaganligi uchun ar-Rumiy hamda yoshligidan vatanidan ketib, ko‘p muddat xorijiy yurtlarda istiqomat qilganligi uchun unga al-Ajamiy deb ham nom berilgan. Uning ota-onasi to‘g‘risida va yoshlik yillari haqida deyarli hech qanday ma’lumot yo‘q. 1401-yili Temur Shomni zabt etgach, Damashqdan juda ko‘p olimlar, fozillar, me’morlar, rassomlar, kosib va hunarmandlarni Movarounnahrga olib keldi. Shular jumlasidan o‘n ikki yashar ibn Arabshoh o‘z onasi, birodarlari va ba’zi qarindoshlari bilan Samarqandga olib kelindi.

Samarqandda yashagan yillarida (1401-1408) ibn Arabshoh o‘z bilimini istagancha oshirishga muyassar bo‘lganligi va keyinchalik juda ko‘p o‘lkalarga sayohat qilganligi uni Samarqandda biror tazyiq ostida yashamaganligidan dalolat beradi. Sharqshunos Sh. Ryoning (1820-1902) ko‘rsatishicha, «at-Ta’lif at-Tohir» nomli bir asarida Ibn Arabshoh o‘zi haqida yozib, o‘z davrining ulug‘ podshohlari saroyida bo‘lib, ulardan ko‘plarining, xususan, Hind, Eron, Dehli, Dashti Qipchoq va Rum bilan bir qatorda Chig‘atoy hukmdorlari xizmatini o‘taganligi to‘g‘risida hikoya qiladi. Garchi muallif qanday xizmatda bo‘lganligini yozmasa- da, uning saroy ahllari bilan munosabatda bo‘lganligiga qisman asos bor. Chunonchi, lbn Arabshoh Samarqandda bo‘lgan davrida shu joydagi ba'zi e'tiborli kishilar bilan o‘tkazgan suhbatini o‘z asari «Ajoib al-maqdur»da bir necha bor takrorlaydi. Jumladan, uning o‘sha davr yetuk astronomlaridan biri Mavlono Ahmad, shatranj o‘yinining mohir ustasi Alouddin va Temurning mashhur amirlaridan biri Ollohdod bilan bo‘lgan suhbati haqidagi faktlar ham fikrimizga dalildir. O‘sha vaqtda Samarqandda istilo etilgan mamlakatlardan keltirilgan taniqli olim, tabib, faqih, san’atkor va hunarmandlaming ko‘p bo‘lganligi ibn Arabshoh kabi ilm toliblarining yetarli bilim olishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, u fors, turk va mo‘g‘ul tillarini o‘rgandi, ikkinchi tomondan esa Temur madrasasida Sayyid Sharif Muhammad Jurjoniy (1339-1413) va Shamsuddin Muhammad al-Jazariy (1350-1449) kabi mashhur olimlardan ta’lim oldi.

1408-yildan boshlab Ibn Arabshohning hayoti to‘xtovsiz sayohatlar bilan bog‘liq bo‘ldi. Xitoy, Mo‘g‘ulistonga qilgan sayohatlari davomida ham ibn Arabshoh ilm ahllari bilan suhbatida bo‘ldi. Shundan keyin Xorazm orqali o‘tib, Ural va Volga bo‘ylarida bir oz muddat bo‘lgach, Dashti Qipchoqning poytaxti Saroy shahriga bordi. Bu shaharda mashhur fiqh olimi va tarixchi Hofizuddin Muhammad ibn Nosiruddin Muhammad al-Bazzoziy huzurida ko‘p muddat tahsil oldi. So‘ngra Ashtarxon shahriga borib, ancha muddat u yerda yashadi. Uning Abdulvahob ismli o‘g‘li 1410-yilda Ashtarxonda dunyoga keldi. Keyin ibn Arabshoh Qrimga o‘tib, unda bir qancha ulamolarning suhbatida bo‘ldi. Bu joyda uni g‘oyatda quvontirgan narsa turkcha «Munis al-ushshoq» («Oshiqlar do‘sti») nomli asar sohibi shoir va adib Abdulmajid bilan bo‘lgan uchrashuvi edi. 1411-yiIda Ibn Arabshoh Qora dengiz orqali o‘tib, Adrianopolga, turk sultoni Muhammad I ning saroyiga keldi. Dastlab u, sultonning o‘g‘li Murod II o‘qishi uchun fors va arab tillaridan turkchaga kitoblar taijima qilish

bilan mashg‘ul bo‘lib, bir nechta asarlami tarjima qildi. Shu paytda sulton saroyida xizmatda bo‘lgan Shamsuddin ibn Hamza al-Fanoriy va Burxonuddin Haydar al-Havofiy kabi tasavvuf va mantiq ilmidagi mashhur olimlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatdi. Adabiyot ilmidagi qudratini amalda ko‘rsatishi hamda birmuncha xorijiy tillarni mukammal bilganligi bilan sultonning hurmat-ehsoni va iltifotiga muyassar bo‘lgan Ibn Arabshoh, nihoyat sulton hukumatida kotib us-sir («shaxsiy kotib») darajasiga ko‘tarildi. Turklar poytaxtida o‘n yilcha bo‘lgach, Ibn Arabshoh 1421-yil Muhammad I ning vafotidan keyin o‘z ona yurtiga qaytishga qaror qiladi. 1429-yil Ibn Arabshoh Makkaga hajga boradi, 1436-yilda esa Qohiraga kelib, unda bir qancha muddat yashadi. Uning Qohiraga kelishini Ibn Hajar al-Asqaloniy - XV asr Misr tarixchisi yozib qoldiradi. Qohirada bo‘lgan vaqtida Ibn Arabshoh sulton Zohir Chaqmoqning da’vatiga binoan bir qancha muddat uning saroyida yashadi. Uning do‘stlaridan tarixchi Ibn Tag‘riberdining aytishicha, Ibn Arabshoh Qohiraga bir necha marta kelgan va har safar kelganda nasriy va nazmiy asarlaridan sultonga parchalar o‘qib bergan. Lekin so‘nggi bor kelganida sulton tomonidan ilgarigidek samimiy muomala ko‘rmadi. Aksincha, Ibn Arabshohning g‘animlari tomonidan yetkazilgan asossiz ig‘volarga ishongan sulton, uni hibsga olishlarini buyurgan. Ibn Arabshoh hibsda faqat besh kun bo‘lgan, hibsdan chiqqach, o‘n ikki kundan keyin, ya’ni 1450-yilning 25-avgust kunida vafot etadi va Qohirada dafn etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. As-Saxaviy, “Ad-dav’al-lomi”, 2-jild. 127-bet.
2. Ibn Hojar al-Asqaloniy. “Inba al-g‘umn” nomli tarixiy asari.
3. Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi”- Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. I—II qismlar / Arab tilidan tarjima va izohlar, - Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2019. – 20-21-22 b.
4. “Sho’ro” jurnali, 673-bet.